

SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV USULLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy interaktiv metodlar, ularning ahamiyati hamda o'quvchilar faolligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, an'anaviy metodlardan farqli ravishda kam qo'llanilgan va innovatsion hisoblangan „Sokin debat“, „Bir daqiqalik ekspert“, „Raqamli detektiv“, „G'oya auksioni“ kabi usullar haqida ma'lumot berilgan. Mazkur metodlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Qo'shimcha Timoti Uokerning „Finlandiya ta'lim mo'jizasi“ asarida keltirilgan interaktiv metodlar haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, innovatsion ta'lim, zamonaviy pedagogika, kreativ fikrlash, ta'lim texnologiyalari, dars samaradorligi, o'quvchi faolligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные интерактивные методы, используемые в образовательном процессе, их важность и роль в повышении активности учащихся. Также представлена информация о методах, которые используются реже и считаются инновационными по сравнению с традиционными методами, таких как «Тихие дебаты», «Эксперт за одну минуту», «Цифровой детектив», «Аукцион идей». Анализируется эффективность этих методов в развитии у учащихся самостоятельного мышления, креативности, коммуникативных навыков и умения решать проблемы. Кроме того, упоминаются интерактивные методы, представленные в книге Тимоти Уокера «Финское образовательное чудо».

Ключевые слова: интерактивный метод, инновационное образование, современная педагогика, креативное мышление, образовательные технологии, эффективность урока, активность учащихся.

Abstract. This article examines modern interactive methods used in the educational process, their importance, and the role they play in increasing student engagement. It also presents information on methods that are less commonly used and considered innovative compared to traditional methods, such as "Silent Debate," "One-Minute Expert," "Digital Detective," and "Idea Auction." The effectiveness of these methods in developing students' independent thinking, creativity, communication skills, and problem-solving abilities is analyzed. Additionally, the interactive methods presented in Timothy Walker's book "The Finnish Education Miracle" are mentioned.

Keywords: interactive method, innovative education, modern pedagogy, creative thinking, educational technologies, lesson effectiveness, student engagement.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida an'anaviy „o'qituvchi gapiradi — o'quvchi tinglaydi“ modeli asta-sekin o'z o'rnini interaktiv metodlarga bo'shatmoqda. Interaktiv usullar o'quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, o'quvchi oddiy tinglash orqali ma'lumotning taxminan 20–30 foizini eslab qolsa, interaktiv mashg'ulotlarda bu ko'rsatkich 70–90 foizgacha yetadi. Shu sababli zamonaviy ta'limda yangicha, kam qo'llanilgan va ijodiy metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Interaktiv usullarning ahamiyati. Interaktiv metodlar:

- mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- muloqot madaniyatini oshiradi;
- jamoaviy ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;
- o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi;

-tezkor fikrlash va muammo yechish qobiliyatini rivojlantiradi.

Psixolog olimlarning fikricha, inson faol qatnashgan ma'lumotni uzoq vaqt eslab qoladi. Shu bois interaktiv ta'lim usullari samaradorligi yuqori baholanadi.

Zamonaviy va kam qo'llanilgan interaktiv usullar

1. „Sokin debat“ usuli

2. Bu metod oddiy bahs-munozaradan farq qiladi. O'quvchilar gapirmaydi, balki fikrlarini qog'oz yoki doskaga yozib boradi. Guruhlar bir-birining fikriga yozma ravishda javob qaytaradi.

Afzalliklari:

-tortinchoq o'quvchilar ham faol qatnashadi;

-shovqin kamayadi;

-yozma nutq rivojlanadi.

2. „Bir daqiqalik ekspert“ usuli

Dars davomida har bir o'quvchiga kichik mavzu beriladi. U 1 daqiqa ichida shu mavzu bo'yicha „ekspert“ sifatida tushuntirish beradi.

Natijasi:

-tez fikrlash rivojlanadi;

-nutq ravonligi oshadi;

-mavzuni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasi shakllanadi.

3. „Aylanma savol“ metodi

O'quvchilar doira shaklida joylashadi. Har bir o'quvchi oldingi o'quvchi aytgan fikr asosida yangi savol beradi.

Afzalliklari:

- mantiqiy bog'lanish kuchayadi;

-diqqat jamlanadi;

-barcha o'quvchilar jarayonda qatnashadi.

4. „Raqamli detektiv“ usuli

O'quvchilarga diagramma, statistik jadval yoki QR-kod orqali ma'lumot topish vazifasi beriladi. Ular ma'lumotni tahlil qilib, xulosa chiqaradi.

Bu metod media savodxonlik va axborotni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

5. „Teskari dars“ usuli

Bu metodda o'quvchi mavzuni oldindan mustaqil o'rganadi. Dars vaqtida esa amaliy mashqlar va muhokamalar olib boriladi.

Afzalliklari:

-vaqt samarali taqsimlanadi;

-mustaqil ta'lim ko'nikmasi shakllanadi;

-amaliy faoliyat ko'payadi.

6. „G'oya auktsioni“ metodi

Muammo bo'yicha eng foydali va kreativ g'oya tanlanadi. O'quvchilar o'z fikrlarini himoya qiladi.

Afzalliklari:

-kreativ tafakkur rivojlanadi;

-innovatsion fikrlar paydo bo'ladi;

-darsga qiziqish ortadi.

Bundan tashqari savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarning o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda elektron o'yinlardan foydalanish samarali metodik vositalardan biri hisoblanadi. Elektron o'yinlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishini oshiradi hamda ularni faol ishtirok etishga undaydi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin orqali o'rganish jarayoni juda samarali hisoblanadi. Demak, elektron o'yinlarni ham interaktiv usul deb olsak bo'ladi.

Elektron o'yinlar orqali o'quvchilar harflarni tanish, tovushlarni farqlash, bo'g'ing'lardan so'z tuzish va gaplar hosil qilish kabi mashqlarni qiziqarli tarzda bajaradilar. Bunday o'yinlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, diqqatini va xotirasini rivojlantirishga yordam beradi.

Bilamizki, hozirgi kunda ta'lim jarayonini namunalilik etayotgan davlatlardan biri Finlandiya to'g'risida yozuvchi Timoti Uoker „Finlandiya ta'lim mo'jizasi“ asarida turli xil interaktiv usullarni aytib o'tgan. Masalan:

1. Guruhli o'yinlar metodi – o'quvchilarni jamoaga birlashtirish va faollashtirish uchun.
2. Timbiling (jamoatuzish) usuli – yangi sinf jamoasini shakllantirishga xizmat qiladi.
3. Kichik guruhlarda ishlash – o'quvchilarning hamkorlikda bilim olishini ta'minlaydi.
4. Muhokama va munozara metodi – o'quvchilar fikrini asoslab berishga o'rgatadi.
5. Savol-javob metodi – bilimlarni tekshirish va mustahkamlash uchun.
6. Ekskursiya va ochiq havoda ta'lim – tabiat qo'ynida o'qitish orqali amaliy o'rganish.
7. Hamkorlikda o'qitish – o'quvchilarning bir-biridan o'rganishini tashkil etish.
8. Onglilik (Mindfulness) mashqlari – diqqatni jamlash va darsga tayyorlash usuli.
9. Mustaqil ish va refleksiya usuli – o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi.
10. O'quvchilar bilan birgalikda baholash – o'zaro baholash va fikr almashish asosida tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda interaktiv metodlar zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, innovatsion usullar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli dars jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo'ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o'qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.
2. Timoti U. Finlandiya ta'lim mo'jizasi :maroqli dars o'tishning 33 siri .-Toshkent „Global books“ 2023.-272 b.
3. Aydarova U.B, Azizova N.K. O'qish savodxonligi 1-sinf,qayta ishlangan 2-nashr.-Toshkent.Novda .:2024.-43 b.
4. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallar to'plami .-Buxoro,2026-yil.